

Toshkent viloyati
tomonidan 2024-yil 14.03 da
1411515-son reyestr raqami bilan

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarining
2024-yil 6-fevraldaggi navbatdan tashqari
umumiylig‘ilishi qarori bilan

«RO‘YXATGA OLINGAN»

08/11 2024-yil

 J. Murodov

«TASDIQLANGAN»



“O‘zbekiston metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatining
USTAVI
(yangi tahrirda)

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (matn davomida – Qonun) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyat (matn davomida – Jamiyat) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-martdagি 159-son qarori bilan davlat korxonasi mulkini qayta tashkil etish yo'li bilan ta'sis etilgan. Jamiyat "O'zbekiston metallurgiya zavodi", "Shirin mashinasozlik zavodi", Xo'jalik hisobidagi "Ikkilamchigorametall" korxonalar boshqarmasining huquqiy vorisi hisoblanadi va ilgari tuzilgan barcha shartnomalar hamda majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatni o'ziga oladi.

3. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Qonun va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

4. Jamiyatning to'liq firma nomi:

4.1. O'zbek tilida:

lotin yozuvida: "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyat;

kirill yozuvida: "Ўзбекистон металлургия комбинати" акциядорлик жамияти.

4.2. Rus tilida: Акционерное общество "Узбекский металлургический комбинат".

5. Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

5.1. O'zbek tilida:

lotin yozuvida: "O'zmetkombinat" AJ;

kirill yozuvida: "Ўзметкомбинат" АЖ.

5.2. Rus tilida: AO «Узметкомбинат».

6. Jamiyatning manzili: 110502, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Bekobod shahri, Sirdaryo ko'chasi, 1-uy.

7. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzbeksteel.uz

8. Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti: www.uzbeksteel.uz

II. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOBGARLIGI

9. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

10. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

11. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

12. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmanın nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

13. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtiroychilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

14. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

15. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rmini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchilagini o'z zimmasiga oladi.

16. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiyamatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

17. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

18. Agar Jamiyatning bankrotligi Jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmanan taqdirda, mazkur aksiyadoming zimmasiga Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ushbu Ustavda bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo'ladi.

19. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador Jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan Jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning bankrotligi aksiyadoming harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

20. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

III. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI

21. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi xo'jalik hisobida va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, bozorni xalq iste'mol mollari bilan to'ldirish, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni xal etish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ishlab chiqarish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtirish tamoyillari asosida moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

22. Jamiyatning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- qora metall parchalari va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) va ularni qayta ishlash;
- qora metallar prokati va boshqa metall mahsulotlari ishlab chiqarish;
- sirlangan idishlar va boshqa xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va sotish.

23. Jamiyatning faoliyati quyidagilardan iborat:

- mahalliy xom-ashyo manbalaridan, ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanib, ekologik toza texnologiya asosida o'z mahsulotlarini va xalq iste'moli mollarini, shuningdek shlak va boshqa metallurgiya ishlab chiqarish chiqindilaridan mahsulotlar tayyorlash va sotish;
- tovar va boshqa mahsulotlarni sotish va xarid qilish, savdo-vositachilik, savdo-xarid faoliyatini amalga oshirish;
- aholi va korxona, muassasa va tashkilotlarga turli xil shakli va usullarda pullik xizmat ko'rsatish;
- aholi va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan transport xizmatlarini amalga oshirish;

- turli iste'molchilarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nostandard mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek do'konlar shaxobchasi orqali na'munali firma savdosini tashkil etish;
- jismoniy va yuridik shaxslarga ta'mirlash, sozlash xizmatlarini amalga oshirish, ishlab chiqarish, uy-joy va kommunal qurilish ishlarini bajarish;
- ko'p nusxali gazetalarini chop etish, teleko'rsatuvlar tayyorlash va ko'rsatuvlarni namoyish etish;
- loyiha - smeta hujjalarni tuzish;
- loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish;
- ichki foydalanish uchun past va o'rta bosimdag'i gaz quvurlarini loyihalashtirish;
- texnologik ehtiyojlari uchun o'rta va past bosimdag'i gazdan foydalanuvchi uskunalarini tabiiy gazni iste'mol qilish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.

24. Jamiyat o'z mablag'lарини ishtirokchilarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga, mablag'lari va texnik manbalarini birlashtirgan holda ishlab chiqarishni oshirishga, metallurgiya sanoati va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida xo'jalik yuritishning yangi usullarini, fan va texnika yutuqlarini joriy qilishga yo'naliiradi, aholi va ishlab chiqarish texnikasini ish bilan ta'minlashda yordam beradi.

25. Jamiyat mazkur hududning ekologik holatini hisobga olgan holda va taalluqli organlari bilan kelishilgan holda, shuningdek shu hududda yashovchi aholining manfaatlarini va ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etadi.

26. Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

IV.JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

27. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

28. Jamiyat ustav kapitalining miqdori 3 785 717 290 000 (uch trillion yetti yuz sakson besh milliard yuz o'n yetti million ikki yuz to'qson ming) so'mdan iborat bo'lib, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 757 143 458 (yetti yuz ellik yetti million bir yuz qirq uch ming to'rt yuz ellik sakkiz) dona egasi yozilgan aksiyalarga bo'lingan.

29. Jamiyat tomonidan quyidagi turdag'i aksiyalar joylashtirilgan:

- nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 3 027 975 325 000 (uch trillion yigirma yetti milliard to'qqiz yuz yetmish besh million uch yuz yigirma besh ming) so'mlik 605 595 065 (olti yuz besh million besh yuz to'qson besh ming oltmis besh) dona nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalar;

- nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 757 741 965 000 (yetti yuz ellik yetti milliard yetti yuz qirq bir million to'qqiz yuz oltmis besh ming) so'mlik 151 548 393 (bir yuz ellik bir million besh yuz qirq sakkiz ming uch yuz to'qson uch) dona nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar.

V.JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KO'PAYTIRISH

30. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

31. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

32. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'llon qilingan aksiyalar miqdori - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 599 050 115 (besh yuz to'qson to'qqiz million ellik ming bir yuz o'n besh) dona oddiy va 108 422 227 (bir yuz sakkiz million to'rt yuz yigirma ikki ming ikki yuz yigirma yetti) dona imtiyozli aksiyalardan iborat.

33. Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiyligi qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozorga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

34. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

35. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

36. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayriboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdag'i aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

37. Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

38. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

39. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida joylashtiriladi. Aksiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish yo'li bilan aksiyalarni taklif etish narxi aksiyalarni ommaviy taklifi tashkilotchisi (anderrayter) tomonidan belgilanadi.

40. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtaida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozorga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

41. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi tomonidan Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

VI. JAMIyatNING USTAV KAPITALINI KAMAYTIRISH

42. Jamiatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiyl sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

43. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjalarda belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Jamiat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

44. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtida aksiyadorlarning umumiyl yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

VII. JAMIyat AKSIYALARINING TURLARI VA UALAR BO'YICHA DIVIDEND TO'LASH TARTIBI

45. Jamiatning aksiyalari oddiy va imtiyozli bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

46. Imtiyozli aksiyalar egalari Jamiat tugafligan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o'ttasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o'z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.

47. Jamiat o'zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

48. Dividendlar Jamiatning Jamiat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin. Jamiat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

49. Dividend aksiyadorlarning umumiyl yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Jamiatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

50. Dividend aksiyadorlar o'ttasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Imtiyozli aksiya o'z egasiga har yili bir dona aksiya nominal qiymatining 6 foizi miqdorida birinchi navbatda dividend olish huquqini beradi.

51. Jamiat moliyaviy yilning birinchi choragi, olti oyi, to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha dividendlar (oraliq dividendlar)ni hisoblab chiqish va to'lash huquqiga ega. Oraliq dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qilish tartibi, dividendlar miqdori, ularni to'lash shakli va tartibi Jamiatning dividend siyosati bilan belgilanadi. Oraliq dividendlarni to'lash muddati Jamiat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobot ishonchiligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy xisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlaring umumiyl yig'ilishi tomonidan qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmagligi lozim.

VIII. JAMIyatNING ZAXIRA FONDI

52. Jamiat sof foya xisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiyl yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

53. Jamiatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish,

imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

54. Jamiat ustav kapitalining 15 foizdan kam bo'limgan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

55. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

IX.JAMIyat BOSHQARUVINING TUZILMASI

56. Jamiat boshqaruv organlari:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Boshqaruv va uning raisi).

X.JAMIyat AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

57. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiatning yuqori boshqaruv organidir.

58. Jamiat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi yil tugaganidan keyingi yilning o'ttizinchi iyun sanasida o'tkaziladi.

59. Jamiatning bir foizdan kam bo'limgan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

60. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'rildi:

- Kuzatuv kengashini saylash;
- Jamiatning Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomanining muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish;
- Jamiatning yillik hisoboti va biznes-rejasi ijrosi bo'yicha hisobot;
- Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari;
- foya va zararlarini taqsimlash;
- Jamiat Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar hamda Jamiatni boshqarishga doir qonun hujjalarda belgilangan talablarga riosa etilishi yuzasidan hisobotini eshitish;
- yig'ilishda boshqa masalalar ham ko'rib chiqilishi mumkin.

61. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

62. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'limgan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining o'rinnbosari yoki a'zolaridan biri olib boradi.

63. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Jamiat Ustaviga Jamiatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
 - Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
 - ustav kapitalini kamaytirish;
 - Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;
 - Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng qaror qabul qilish;
 - Jamiyatning ijroiya organi rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
 - Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
 - Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;
 - Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
 - Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
 - O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuning 8-bobida nazarda tutilgan hollarda balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat so'f aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;
 - O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuning 9-bobida nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - Korporativ boshqaruvi kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;
 - Jamiyatning ichki nazorat, dividend siyosati, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;
 - Mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyatiga taalluqli bitimlarni belgilash;
 - Sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investisiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtiroychisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);
 - Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);

- Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalarini (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi davomiyligini belgilash;

- Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomada tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

64. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

65. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

66. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birlashtiriladi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.

67. Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

68. Jamiyat Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

XI.JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

69. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolatiga ta'lugu masalalar bundan mustasno.

70. Jamiyat Kuzatuv kengashining azolari aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi azolarining soni 9 kishidan iborat.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoligiga nomzodlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi. Tanlov o'tkazish tartibi va shartlari Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida belgilanadi.

71. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlarning reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining 2-xatboshida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- Jamiatning ijroiya organi a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Jamiatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini ma'qullash, shuningdek ularga to'lanadigan ustamalar, mukofot puli va boshqa moddiy rag'batlantirish miqdorlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida" 2015 yil 28 iyuldagagi 207-son qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda ma'qullash;

- Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyatini tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- Jamiatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

- Biznes-rejaga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish;

- Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujatlardan erkin foydalanish va Jamiat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujatlarni ijroiya organidan olish. Jamiat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini, shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;

- auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- Zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyatni yoki mas'uliysi cheklangan jamiyatni shakllarida tuziladi);

- Qonunda belgilangan hollarda Jamiat tomonidan yirik bitimlar va Jamiat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujatlari belgilangan tartibda tuzish;

- Korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Jamiat Ustaviga Jamiatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Jamiatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- Aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

• Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislar, soha oliv ta'lim muassasalari o'qituvchilar va boshqalar) dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlari) tashkil etish;

• Jamiat asosiy faoliyatiga xos bo'lган yangi ko'chmas mulk ob'yektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik Jamiatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

• mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmini, Jamiat va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) ko'rib chiqish, bunda, Jamiat va uning ulushi 50 foizdan ortiq bo'lган korxonalarga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritilishi yoki xo'jalik jamiatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta'sischi bo'lган korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha kelishuvlarni hamda yirik ko'chmas mulk obyektlarini sotish masalalar majburiy tartibda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining xulosasi olingan holda ko'rib chiqiladi;

• Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

72. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lган shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'tasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. Kuzatuv kengashi a'zosi saylangan aksiyadornarning umumiyligi yig'ilishi bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

73. Kuzatuv kengashining raisi va kengash raisining o'rribbosari kengash a'zolari tomonidan ularning o'zлari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisi va kengash raisining o'rribbosarini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

74. Kuzatuv kengashining raisi yoki kengash raisining o'rribbosari kengash ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi, boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi.

75. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lган hollarda uning vazifasini kengash raisining o'rribbosari yoki kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

76. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi yoki kengash raisining o'rribbosari tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi. Jamiatning 1 foizdan kam bo'lмаган oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

77. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lса, majlisda hozir bo'lганlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lган holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

78. Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirtdan berilgan deb hisoblanmaydi.

79. Kuzatuv kengashining raisi, kengash raisining o'rinnbosari va kengash a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjalariiga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

80. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

XII.JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

81. Jamiatning kundalik faoliyatiga rahbarlik Boshqaruvi va uning raisi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiat Boshqaruvi a'zolari soni 9 kishini tashkil etadi. Jamiat Boshqaruvi vakolatiga Jamiatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

82. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

83. Jamiat Boshqaruvi va uning raisi Jamiatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiat Ustavi, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

84. Boshqaruvi raisi Qonun va mazkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi va ularga hisobot beradi.

85. Boshqaruvi raisi aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan uch yilga lekin ketma-ket ikki martadan ko'p bo'lgan muddatga saylanadi (tayinlanadi). U bilan mehnat shartnomasini Jamiat nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki kengash raisining o'rinnbosari imzolaydi.

86. Boshqaruvi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Ular bilan mehnat shartnomasini Jamiat nomidan Boshqaruvi raisi imzolaydi.

87. Boshqaruvi raisi va a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi. Bunda, tanlov Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

88. Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etayotgan Boshqaruvi a'zolari ijroiya organiga a'zolar saylash masalasida ovoz berishda ishtirok etmaydi.

89. Jamiat Boshqaruvi qonunchilikda belgilangan tartib va hollarda homiy va xayri yordam ko'rsatishga haqlidir.

90. Boshqaruvi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Yuridik va jismoniy shaxslarga homiylik va moliyaviy yordam ko'rsatish va bu yordamning miqdorini belgilash;

- Jamiat tuzilmalari rahbarlari hisobotlarini har chorak yakuni bo'yicha eshitish;

- Jamiat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiat sofab aktivlari

miqdorining 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

• aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

• Jamiatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish, shu jumladan e'lon qilish maqsadida Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga transformatsiyasini ta'minlash;

• qonun hujjatlariga muvofiq Jamiat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;

• yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

• Jamiat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;

• amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiat ichki hujjatlariga rioxva qilish;

• qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

91. Boshqaruva raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

• mazkur Ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiatning ishiga rahbarlik qilish;

• Jamiat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

• Jamiat nomidan bitimlar tuzish;

• Kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

• Jamiat xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o'zgartiradi va bekor qiladi;

• xodimlar shtatlarini tasdiqlash, bunda, shtat jadvaliga xodimlarni soni oshishi bilan bog'liq o'zgartirishlar Kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

• xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, bunda yuqori rahbarlik lavozimdagagi nomzodlarni ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish Kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

• xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;

• Jamiat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

• Jamiatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

• o'z vakolatlari doirasida Jamiatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

• Jamiat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari o'rtasida vakolatlarini va majburiyatlarni taqsimlaydi. Xodimlar lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi;

• qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

92. Boshqaruva va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarni bajarishda Jamiat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

93. Boshqaruva va uning raisi mazkur Ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

XIII.JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

94. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobarini tashkil etsa va (yoki) oshsa Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

95. Jamiyatning ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

96. Ichki audit xizmati Jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

97. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

98. Jamiyatda Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

99. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

XIV.YAKUNIY QOIDALAR

100. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga asosan hal qilinadi.

101. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'limgan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

102. Mazkur Ustav va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.



Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnomalar

O'zgartirishdan oldin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
200 460 222

Nomi

O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyat

Joylashgan joyi (manzili)

Toshkent viloyati, Bekobod shahri, SIRDARYO

O'zgartirishdan keyin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
200 460 222

Nomi

O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyat

Joylashgan joyi (manzili)

Toshkent viloyati, Bekobod shahri, SIRDARYO

14.03.2024

2411515

Guvohnoma olingan sana

Ariza raqami

1934399





O'zbekiston Respublikasi
Adliyavazirligi

Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgarishdan oldingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 605595065

Aksiya bahosi: 5 000 so'm

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Imtiyozli

Aksiyalar soni: 151548393

Aksiya bahosi: 5 000 so'm

Ustav fondi

3785 717 290 000 so'm



O'zbekiston Respublikasi
Adliyavazirligi

Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgarishdan keyingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 605595065

Aksiya bahosi: 5 000 so'm

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Imtiyozli

Aksiyalar soni: 151548393

Aksiya bahosi: 5 000 so'm

Ustav fondi

3785 717 290 000 so'm

14.03.2024

2411515

Gazifromma oldingan sansa

Arsiz raqami

1934399



14.03.2024

2411515

Gazifromma oldingan sansa

Arsiz raqami

1934399



Yuridik shaxsn ni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi



GUVOHNOMA

Yuridik shaxs

"O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

Tashkiliy-huquqiy shakliko'rsatiqan holda yuridik shaxs - tadbirkorlik subyektining to'liq nomi

"O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi

200 460 222

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

15.07.2014

2003729

Sana

Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

AKSIYADORLIK JAMIYATI

Faoliyat yuritadigan manzil:

TOSHKENT VILOYATI, BEKOBOD SHAHRI, SIRDARYO

Tomonidan berilgan:

BEKOBOD TUMANI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI

1934400

